

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi
№ MD-AL 3-17
2023 yil

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim,
fan va innovatsiyalar vazirining
2023 yil "22.09.2023" dagi

MD-AL 3-17 - sonli buyrug'i bilan
tasdiqlangan.



“Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik”

yo'nalishi bo'yicha akademik litseylar pedagog kadrlarini
qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursining o'quv dasturi

TOSHKENT – 2023

Kursning maqsadi va vazifalari

Akademik litseylar pedagog xodimlarining malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog xodimlarning o'quv-tarbiyaviy jarayonlarini yuqori ilmiy-metodik darajada ta'minlashlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining uzluksiz rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- pedagog xodimlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish;
- pedagoglarning zamonaviy talablarga mos holda akademik litseylardagi o'qitish sifati va samaradorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan kasbiy mahorat darajasini oshirish;
- o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish hamda ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quv jarayonini ilm-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

Kurs yakunida tinglovchilar quyidagi yo'nalishlarda bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- Huquqiy-me'yoriy hujjatlar bilan ishlashda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik vazifalarini;
- "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risi"dagi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi 140-son Qaror mazmunini; harbiy san'at tarixining shakllanishi va milliy qahramonlarimizning betakror va noyob harbiy jang san'atining ahamiyatini;
- O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunini va "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni tashkil etish"da harbiy ta'lim sohasiga oid yangiliklar va dolzarb masalalarning mazmun-mohiyatini;
- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirishni;
- mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayoniga zamonaviy yondashuvlar, fanni kasbga yo'naltirib o'qitish metodikasi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali tatbiq etilishini ta'minlashni;
- mutaxassislik fanlari sohasidagi o'qitishning innovatsion texnologiyalari va o'rta maxsus ta'limda ilg'or xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlilini;

- Akademik litseylarning CHQBT fani o'qituvchilari malakasini oshirish kursida malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlashni;
- o'qituvchining innovatsion faoliyatining mazmun-mohiyatini;
- tinglovchilarda innovatsion xarakterga ega pedagogik faoliyatni tashkil etish;
- o'qituvchining kasbiy mahorati va o'quv mashg'ulotlarni loyihalashdagi faoliyatini takomillashtirishni;
- tinglovchilarning o'quv loyihalarini ishlab chiqish, portfoliolarni shakllantirish va amaliyotga tatbiq etish malakalarini takomillashtirishni;
- tinglovchilarda pedagogik etika va axloq odob sifatlarini yanada rivojlantirishni *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimiga oid qabul qilgan farmonlari, qarorlari va farmoyishlarini, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlari asosida o'quv jarayonini tashkil etish;
- onlayn darslarni tashkil etish va o'tkazish;
- o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash;
- yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid masalalarda so'zlashish (ilmiy yo'nalishi haqida), tushunish (jarayonni tinglab tushunish) va o'qib tushunish (gazeta va jurnallardagi kasb sohasiga oid maqolani o'qish);
- yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid masalalarda tadbirlar tashkil etish va uni o'tkazish;
- yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid nashr etilgan so'nggi o'quv va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;
- o'rta maxsus ta'lim muassasalarida yangi dasturlar asosida ishlay oladigan kadrlarni tayyorlash bo'yicha tadqiqotlar olib borish;
- zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali jahon standartlariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlash;
- ta'lim xizmatlarini ko'rsatish borasidagi xorijiy tajribalardan foydalanish;
- harbiy ta'limga doir eng so'nggi ilmiy nazariyalar va ularning mualliflari faoliyatidan keng foydalanish;
- ilmiy maktablarda erishilgan yutuqlarini o'quv jarayoniga tatbiq etish;
- ta'lim jarayonini loyihalashtirish va uni tashkil etish;

- ta'lim jarayoniga STEAM o'qitish texnologiyalarini tadbiq etish;
- o'quv mashg'ulotlarni loyihalash va rejalashtirish;
- shaxsga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish;
- o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish;
- masofali o'qitish, mahorat darslari, vebinar va assesment texnologiyalarini ta'lim amaliyotiga samarali tatbiq etish *ko'nikma va malakalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid kasbiy professionalligi va innovatsion faoliyatini namoyon etish;
- ta'lim va tarbiya jarayoni faoliyatda aktyorlik va rejissyorlik elementlaridan foydalanish;
- yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid masalalarda so'zlashish (ilmiy yo'nalishi haqida), tushunish (jarayonni tinglab tushunish) va o'qib tushunish (gazeta va jurnallardagi kasb sohasiga oid maqolani o'qish);
- yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid masalalarda tadbirlar tashkil etish;
- yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid nashr etilgan so'nggi o'quv va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;
- ma'ruza va amaliy darslarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspres-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash;
- innovatsion faoliyat asosida o'quv jarayonini ijodiy tashkil etish;
- innovatsion tafakkur yuritish orqali ta'lim jarayonida ijodiy muhitni yaratish;
- mutaxassislik bilan bog'liqlikda innovatsiyalarni real amaliyot bilan uyg'unlashtirishga erishish;
- pedagogik innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirish;
- ta'lim jarayonining innovatsion xarakter kasb etishini ta'minlash;
- o'quvchi-talabalarni izlanishli-ijodiy faoliyatga yo'naltirish *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Kursning hajmi

Malaka oshirish kursi 8 kredit (48 soat)ni tashkil etadi. Bunda o'quv dasturining 4 kredit (24 soat)ga mo'ljallangan tayanch modullari ishdan ajralgan

holda qayta tayyorlash va malaka oshirish mintaqaviy markazlarida o'qish orqali hamda ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirish shakllarini bajargan holda kamida 4 kredit yig'ish orqali amalga oshiriladi. Mustaqil malaka oshirish shakllida chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari tanlov modullarini o'zlashtirish orqali hamda so'ngi bir yilda bajargan kasbiy faoliyat natijalari bo'yicha kreditlar yig'ib boradilar. Malaka oshirish davomida kamida 8 kredit birligini to'plagan chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilariga QR-kod tushirilgan elektron shakldagi sertifikat taqdim etiladi.

“CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK” YO'NALISHI BO'YICHA MALAKA OSHIRISH KURSI O'QUV MODULLARINING MAZMUNI

1.1. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikning huquqiy-me'yoriy asoslari.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikning huquqiy-me'yoriy asoslariga kirish. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar. Yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash hamda ularga Vatan himoyasi – sharafli va muqaddas burch g'oyasini chuqur singdirishga yo'naltirilgan rasmiy hujjatlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimiga oid qabul qilgan farmonlari, qarorlari va farmoyishlari. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish, bu boradagi ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkilashtirishda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarini hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini yanada faol jalb etish. Yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg'ularini singdirishga yo'naltirilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qabul qilgan farmonlari, qarorlari va farmoyishlari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlarida yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash jarayonida kasbiy professionalligi va innovatsion faoliyatini namoyon etish. Qisqa metrajli video lavhalar orqali Vatan himoyasi – sharafli va muqaddas burch g'oyasini chuqur singdirish. Kasbiy professionalni oshirish maqsadida atrofimizda va jahonda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tahlil qilish. Turli ichki va tashqi tahdidlarga nisbatan qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish. O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya

qilishga tayyor turishda yoshlarga fidoyilik, bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar, voqealar va jarayonlar orqali yoshlar ongiga singdirib borish.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlar asosida o'quv jarayonini tashkil etish. Ta'lim jarayonida tinglovchilarni me'yoriy hujjatlar asosida yoshlarga milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash jarayonida hozirgi globalashuv asrida yoshlarning dunyoqarashi, bugungi kunda yoshlarni hayratlantirish, ularning ko'ngildan chuqur joy oladigan loyihalarni ishlab chiqish, zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan faol foydalanishi. Mavjud normativ-huquqiy hujjatlar asosida yoshlar ittifoqi tomonidan vatanparvar yoshlar bilan ishlashda mutlaqo yangi, ilgari mavjud bo'lmagan mexanizmlar, metod va uslublardan foydalanish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda ijodkorlik, kreativlik qobiliyatlarini yanada rivojlantirish.

1.2. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarining kasbiy mahorati va kompetentligi.

Kompetentlik va kompetensiya tushunchalari. "Kompetentlik" tushunchasining mohiyati. Kasbiy kompetentlik sifatleri. Pedagogning kasbiy mahorati va kompetentligi. Psixologik kompetentlik. Unga xos sifatlar mazmun – mohiyati. Kompetentlik va kompetensiya tushunchalari. O'qituvchining tayanch kompetentligi. Tayanch kompetentligining turlari: ijtimoiy-madaniy, individual, me'yoriy-huquqiy, axborot olish, kommunikativ.

Pedagogik kompetentlik. O'qituvchining shaxsiy o'ziga xosligi. Kasbiy faoliyatda ijodiy fikrlash, o'qituvchi shaxsining intiluvchanligi, ma'suliyati va mustaqilligi, o'zini kasbiy o'sishini boshqarish. Psixologik kompetentlik. O'qituvchida o'z-o'zini boshqarishda individual kompetentlik: motivatsiya, qat'iylik, jur'atlilik, hissiy va irodaviylik.

Metodik kompetentlik. Mashg'ulotlarni loyihalash, tashkil etish va boshqarish, ta'lim sifatini baholash. Kasb mahoratini muttasil oshirib borish. Fanga oid maxsus kompetentlik. Nazariy (intellektual, fanlar integratsiyasi) bilimlarni o'rni va uni amaliy faoliyatda qo'llay olish kompetentligi. Zamonaviy pedagog imidji.

1.3. Harbiy ta'lim fanlari o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish.

Harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini rivojlantirishga innovatsion yondashuvlar. Harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini rivojlantirishga innovatsion yondashuvlar: akmeologik, aksiologik, kreativ va refleksiv. Pedagogning innovatsion faoliyatida kasbiy professionallik va uning tarkibiy qismlari. Pedagogning kasbiy professionalligi mazmuni va uni

innovatsion faoliyatda namoyon bo'lishi. Pedagogik texnika haqida tushuncha. O'qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning ahamiyati. Pedagogik texnikaning asosiy komponentlari. Pedagogik texnikani shakllantirish yo'llari.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining turlari. Innovatsion ta'limda ilg'or xorijiy tajribalar integratsiyasi. Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro integratsiyasi. Ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini boshqarishning innovatsion shakli, metod va vositalari. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining turlari. Innovatsion ta'limda ilg'or xorijiy tajribalar integratsiyasi. Kreditlarni hisoblash va ularni o'quv faoliyatlarini turlari, bloklar va alohida fanlar bo'yicha taqsimlashda o'tish koeffitsientini aniqlash. Jahon oliy ta'lim tizimida kredit tizimi turlari. Kredit tizimi ta'lim natijalarini ko'rsatuvchi mezon sifatida.

Harbiy ta'lim o'qituvchilarining innovatsion faoliyat natijalarini baholashga tizimli yondashuv. O'qituvchining innovatsion faoliyat natijalarini baholashga tizimli yondashuv. Pedagogning mustaqil o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirish strategiyalari. O'quv jarayonini samarali boshqarish va o'qituvchining pedagogik mahorat tizimi, pedagogning innovatsion faoliyat natijalarini baholashda tizimli yondashuv pedagogning mustaqil o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish strategiyalari.

1.4. Yo'nalishga oid dolzarb masalalar tahlili.

Tinglovchilar mustaqil ravishda o'quv modulining dolzarb masalalarini tahlil etib, ularni hal etish usullari to'g'risida fikr-mulohazalar yuritadilar.

1.5. Yakuniy nazorat.

Yakuniy nazorat tayanch modullari mazmunidan kelib chiqib onlayn test sinovlari asosida tashkil etiladi. Onlayn test sinovlarida 60 foizdan yuqori natijaga erishgan tinglovchilarga tayanch modullarini to'liq o'zlashtirgan hisoblanadi va ularga 4 kredit ajratiladi. Onlayn test sinovlarida 60 foizdan kam ko'rsatgichga erishgan tinglovchilarga ikki marta qayta topshirish imkoniyati beriladi. Qayta topshirish natijasida onlayn test sinovlaridan 60 foizdan kam ko'rsatgichga erishgan tinglovchilar kursni o'zlashtirmagan hisoblanadi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda

o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Mustaqil malaka oshirish o'quv-metodik va ilmiy-pedagogik faoliyat hamda mustaqil faoliyat yuritish orqali natijalariga ajratilgan kreditlarni yig'ish orqali amalga oshiriladi. Kasbiy faoliyat turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlarini tashkil etishning normativ-huquqiy hujjatlarini o'rganib borish, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida ommaviy tadbirlarni olib borish, stajirovka o'tash; iqtidorli va iste'dodli yoshlar bilan ishlash; ilmiy anjumanlarda ma'ruza bilan qatnashish; ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish; o'quv adabiyotlari (hammualliflikdagi darslik, o'quv qo'llanma)ni tayyorlash va nashrdan chiqarish. Mustaqil tajriba o'tirishda akademik litseylarning harbiy pedagog xodimlari o'z ehtiyojlari va tanlovlaridan kelib chiqib, onlayn shakldagi tanlov modul dasturlarini o'zlashtiradilar. Mustaqil malaka oshirish shakli bo'yicha so'ngi bir yilda to'plangan kredit birliklari malaka oshirish natijalarini umumlashtirishda hisobga olinadi. Pedagog xodimlarning mustaqil malaka oshirish natijalari elektron portfoliyo tizimida o'z aksini topadi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'QR-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi 60-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentabr “Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-3290-sonli Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-son Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1-iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi 296-son Qaror.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4910-sonli qarori.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqi "O'qituvchi va murabbiylar–yangi O'zbekistonda barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir". Xalq so'zi gazetasi 2020 yil 1 oktabr, №207 (7709).

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqi "O'qituvchi va murabbiylar–yangi O'zbekistonda barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir". Xalq so'zi gazetasi 2020 yil 1 oktabr, №207 (7709).

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevral, "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4623-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

20. O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 3 iyuldagi 641-XII-sonli "Mudofaa to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri 2001 yil 11 maydagi o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilgan);

21. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati" to'g'risidagi 2016 yil 14 sentabrdagi O'RQ-406-sonli Qonuni;

22. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 yanvardagi 458-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan "Mudofaa doktrinasi";

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-marifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" PQ-3898-sonli ("O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-marifiy ishlar samaradorligini oshirish Konsepsiyasi) Qarori;

24. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 sentabrdagi O'RQ-718-sonli "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida" o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida Qonuni;

25. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 9 oktabrdagi PF-1571-sonli "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy nizomlarini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni;

26. Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 18 dekabrda 348-son qarori binoan, "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to'g'risida NIZOM"i;

27. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi 140-sonli "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasi" Qarori.

28. Topildiev V. Ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari. - Toshkent: "Universitet". 2015. - 245b.

29. Gulobod Qudratulloh qizi, R. Ishmuhamedov, M. Normuhamedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. - Samarqand: "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" nashriyoti, 2019. 312 b.

30. Inoyatov U.I. va boshq. Pedagogika: nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan darslik.-Toshkent: TDPU – 2013. – 256 b.

31. Ishmuhamedov R., Mirsolieva M., Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2019, 68 bet.

32. Muslimov N.A. va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standard", 2015. – 208 b.

33. Muslimov N.A. va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standard", 2015. – 120 b.

34. Образование в цифровую эпоху: монография / Н. Ю. Игнатова; М-во образования и науки РФ; ФГАОУ ВО УрФУ, 2017. – 128 с.

35. Quchqarova N.M. Pedagogik kasbiy kreativligi va kompetentlik. Darslik –T, 2022, 262 bet.

36. Elmuratova D., Misirova N. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O'quv qo'llanma. -Sirdaryo.: 2021, - 136 b.

37. Mengliyev B.v.b. Ona tili. – T.: O'qituvchi, 2020. – 96 b.

38. Mahmudov N.v.b. Ona tili. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 112 b.

39. Madayev O., Sobirov A., Xolmanova Z., Toshmirzayeva Sh., Ziyodullayeva G., Shamsiyeva M. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.

40. Jamolxonov H., Sapayev Q. Imlo muammolari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2008.

41. Ahmedova N. O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent, 2016.

42. O'zbek tilining imlo lug'ati / Tuzuvchilar: A.Madvaliyev, E.Begmatov. – Toshkent: Akadennashr, 2012. – 528 b.

43. Aminov M. va boshq. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo'llanma. – T.: O'zbekiston DUK, 2020. – 528 b.

44. Muslimov N.A. va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standard", 2015. – 208 b.

IV. Internet saytlar

45. <https://mininnovation.uz/> - Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

46. https://lex.uz/userfiles/file/LexUz_manual_uzb.pdf – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi

47. <https://my.bimm.uz/> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

48. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali Ziyonet.

49. <https://aoka.uz/uzb/organ/> – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi

"ISHLAB CHIQUILGAN":
Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarni
qayta tayyorlash va ularning malakasini
oshirishni tashkil etish
Bosh ilmiy-metodik markazi
Direktor T.T. Shoyardonov
" " " 2023 y.
M.O'.

Buxoro davlat universiteti
Rektor O'X. Xamidov
" " " 2023 y.
M.O'.

Buxoro davlat universiteti huzuridagi pedagog
kadrlarni qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirish mintaqaviy markazi
Direktor B.R. Adizov
" " " 2023 y.

"KELISHILGAN":

Kadrlarni malakasini oshirish va qayta
tayyorlash bo'limi boshlig'i
F.T. Esanboboyev
" " " 2023 y.
M.O'.